

О'zbek tilidagi ayrim murakkab tarkibli gemeronimlarning lisoniy xususiyatlari

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НЕКОТОРЫХ
СЛОЖНЫХ ГЕМЕРОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF SOME COMPLEX
HEMERONYMS IN THE UZBEKI LANGUAGE

Yuldashev Otabek Toshpo'lat o'g'li

Yuldashev Otabek Tashpulat ugli

Юлдашев Отабек Ташиполат угли

O'zbekiston, Namangan davlat universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, v.b dotsent

Uzbekistan, Namangan State University

Doctor of Philosophy, Ph.D. in philological sciences, associate professor

Узбекистан, Наманганский государственный университет

Доктор философских наук, кандидат филологических наук, доцент.

e-mail: otabekuldashev91@gmail.com

Annotation. Maqolada o'zbek tili gemeronimlarining tarkibiy tuzulishlari, jumladan, murakkab tarkibli gemeronimlarni misollar vositasida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: gazeta, jurnal, matbuot, atoqli ot, struktura, gemeronim.

Аннотация.. В статье описывается структура узбекских гемеронимов, включая примеры сложных гемеронимов.

Ключевые слова: газета, журнал, пресса, существительное, структура, гемероним.

Annotation. The article describes the structure of Uzbek hemeronyms, including examples of complex hemeronyms.

Key words: newspaper, magazine, press, noun, structure, hemeronym.

Istiqlol tufayli o'zbek matbuotdagi o'zgarishlar, bu sohaning mamlakatimizda taraqqiyotini, erkinligini ta'minlash bo'yicha bir qator "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Noshirlik faoliyati to'g'risida"¹, "Jurnalistika faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"² kabi qonunlar qabul qilinishi gazeta, jurnallarning soni ortishida va matbuot sohasining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

¹ Ноширлик фаолияти тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни // Халқ сўзи, 1996. 3. 3.

² Журналистика фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Халқ сўзи, 1947. 24. 4.

O‘zbek matbuot nashrlari nomlarining tarkibini kuzatar ekanmiz, ularning bir qismini murakkab tarkibli gemeronimlar tashkil etishini hamda bunday nomlarning asosiy qismi ikki komponentli nomlar, ba’zida uch va undan ortiq komponentli nomlar tashkil etishini ko‘rdik. Murakkab tarkibli gemeronimlar sodda va qo‘shma tipdagi gemeronimlardan farq qilib, birikmaga, ayrim hollarda gapga teng bo‘ladi. So‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi va gap shaklidagi matbuot nashri nomlari murakkab tarkibli gemeronimlar hisoblanadi. Masalan, “O‘zbekiston neft va gaz jurnali”, “Chorvachilik va naslchilik ishi”, “Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi”, “Xorijiy filologiya: til, adabiyot ta’limi”, “Biologiya va tibbiyat muammolari”, “O‘zbekiston yoqilg‘i energetikasi”, “Xorazm madaniyati va sporti”, “Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi”, “Buxoro universiteti ilmiy axborotlari”, “Otalar so‘zi – foydali maslahatlar”, “Jismoniy tarbiya va sport”, “Bozor, pul va kredit” kabi.

Matbuot nashrlari ichidan murakkab tarkibli gemeronimlarni shakliy tuzilishiga ko‘ra kichik tadqiqotimizda quyidagi tiplarga ajratib tahlilga tortdik:

1. Teng bog‘lanish shaklidagi gemeronimlar. Teng sintaktik munosabatda bo‘lish, so‘zlar, shuningdek, ko‘shma gapning predikativ qismlari orasidagi biri ikkinchisiga bo‘ysunmagan, teng aloqani ko‘rsatuvchi munosabat³ yoki so‘zlarni birini ikkinchisiga teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi bilan bog‘lanishi etiborga olinadi. O‘zbek gemeronimlarining katta qismi shu tipdagi bog‘lanishlar tashkil etadi. Masalan, “Jamiyat va qonun”, “Inson va qonun”, “Oila va jamiyat”, “Taraqqiyot va yoshlar”, “Tadbirkor va iste’molchi”, “Fermer va tomorqachi”, “Huquq va iste’molchi”, “Bobur va dunyo”, “Bola va zamon”, “Jamiyat va boshqaruv”, “Maktab va hayot”, “Tibbiyat va zamon”, “Fan va turmush”, “Huquq va burch”, “Dunyo va davr”, “Ayol va jamiyat”, “Sport va salomatlik”, “Ta’lim va tafakkur”, “Iqtisodiyot va ta’lim”, “Futbol va hayot”, “Falsafa va huquq”, “Shifo va ziyo”, “Soliqlar va boj” kabi.

Murakkab tarkibli gemeronimlar tobe va hokim so‘zning bog‘lanish usuliga ko‘ra, boshqaruv, moslashuv va bitshuv usuli bilan bog‘lanadi. Xuddi shu holatlar gemeronimlarda ham uchratish mumkin:

1. Boshqaruv usuli bilan bog‘langan gemeronimlar. Hokim so‘zning talabi bilan tobe so‘zning ma’lum bir grammatik vositalarni olib bog‘lanishi boshqaruv usuli deyiladi. Boshqaruv usuli odatta tobe so‘z hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari va ko‘makchilar vositasida bog‘lanadi. Masalan, “Korxonani boshqarish” “Moziydan sado” kabi.

2. Bitishuv usuli bilan bog‘langan gemeronimlar. Tobe so‘z hokim so‘zga grammatik shakl yordamida emas, balki tartib va oxang orkali bog‘lanadigan sintaktik aloqa turi bitshuv usuli deyiladi⁴. Matbuot nomlarining tarkibida shu kabi bog‘lanish tiplarini qo‘plab uchratish mumkin. Masalan, “Bulbulcha dono”, “Kuch adolatda”,

³ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 104.

⁴ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 23.

“Milliy tiklanish”, “Oltin qalam”, “Sog‘lom avlod”, “Zo‘r Tasvir”, “Farovon Yurt”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “JAJJI AKADEMIK”, “YAngi avlod”, “Yosh kuch”, “Odil sudlov”, “Olam aro”, “Uzluksiz ta’lim”, ”Temir yo‘lchi” kabi.

3. Moslashuv usuli bilan bog‘langan gemeronimlar. Tobe so‘zning qaratqich kelishigini, hokim so‘zni egalik qo‘srimchasi olib bog‘lanishi moslashuv usuli deyiladi. Bunday bog‘langan usulida tobe so‘z faqat qaratqich kelishigi bilan bog‘lanishi, ba’zan esa qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llanishi yoki qaratqich kelishigi ham egalik qo‘srimchasi ham belgisiz qo‘llanish holatlari ham mavjud. O‘zbek gemeronimlarining ko‘plarida belgisiz bog‘lanish usuli uchraydi. Masalan, “Adolat ko‘zgusi”, “Adab gavhari”, “Istiqlol umidlari”, “Bolalar sporti”, “Inson manfaati”, “Qishloq hayoti”, “Kitob dunyosi”, “Ko‘ngil ko‘chalari”, “O‘zbekiston ovozi”, “O‘zbekiston futboli”, “Taraqqiyot mezoni”, “Ma’rifat saodati”, “Psixolog maslahati”, “Savollar olami”, “O‘zbekiston bunyodkori”, “Tong yulduzi”, “Xalq so‘zi”, “Vodiy gavhari”, “Jahon adabiyoti”, “Murabbiy mahorati”, “Mahalla ko‘zgusi”, “Pedagog minbari”, “Ro‘zg‘or san’ati”, “Sinf rahbari”, “Sohibqiron yulduzi”, “Tamaddun nuri”, “Uy vazifasi”, “O‘zbekiston tarixi”, “Sharq yulduzi”, “Ijod olami”, “Turizm olami”, “Qadr ziyosi”, “Yong‘in xavfsizligi” kabi.

Bundan tashqari, ayrim jurnallar gap shaklida murukkab tarkibli gemeronimlarni hosil qilgan. Masalan, “Sog‘liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish”, “Kadrlar masalasi bo‘yicha ma’lumotnoma”, “Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi”, “Ta’lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar”, “Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi”, “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha ma’lumotnoma” kabi.

Gemeronimlarning tarkibini kuzatar ekanmiz, ular tarkibida abbrevatsiya⁵ usuli bilan hosil qilingan gemeronimlarni ham ushratdik. Matbuot nomlari tarkibida quyidagi qisqartma gemeronimlar uchraydi. Masalan, “Info.com.uz”, “Evrika.uz”, “infoCOM.UZ”, “Huquq press NTM”, “O‘zMU ilmiy saboqlari”, “GM-Uz-avto press”, “MED-O-SPID”, “Vunderkind.uz”, “Dom.uz” kabi.

Bundan tashqari, kuzatishlarimizda yana shunday gemeronimlarni uchratdikki, ular tarkibida -iy -viy affiksal morfemalari xoslik bildiruvchi semalarni ifodalab kelgan. Masalan, “Iqtisodiy gazeta”, “Zamonaviy ta’lim”, “Zamonaviy uylar”, “Ma’naviy hayot” kabi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, murakkab tarkibli gemeronimlarni lisoniy o‘rganish jarayonida o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi natijasida o‘zbek tilidagi matbuot nomlari soni, salmog‘i ortganini va doirasi kengayganini hamda o‘zbek gemeronimlarning tarkibiy tuzilishi jihatidan murakkab tarkibli gemeronimlar katta qisimni tashkil qilishini kuzatdik.

⁵ Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 9.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Ноширлик фаолияти тўғрисида Ўзбекистон Республикаси қонуни // Халқ сўзи, 1996. 3. 3.
2. Журналистика фаолиятини ҳимоя қилиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни // Халқ сўзи, 1947. 24. 4.
3. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ, 2002. – Б. 104.
4. Н.А. Абдуазизова. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Тошкент: Академия, 2002. – 6 б.
5. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н.В. Подольская. – М: Наука, 1988. – С. 61.
6. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 403.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 3-ж. – Б. 121-122.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 3-ж. – Б. 443.